

TA'LIM JARAYONIDA GENDER STEREOTIPLARINI BARTARAF ETISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-291-294>

Anvarova Durdona Abror qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-bosqich talabasi

anvarovadurdona154@gmail.com

Mahmudova Mahliyo Akramjon qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-bosqich talabasi

maxliyomaxmudova8@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Haydarova Ra'no Anvarovna**

TDSHU katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim tizimida ildiz otgan gender stereotiplarining o'quvchi va talabalar rivojlanishiga salbiy ta'siri hamda ularni bartaraf etish usullari tadqiq etiladi. Maqolada xalqaro miqyosdagi ilg'or tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston ta'lim muassasalarida gender tenglik madaniyatini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, o'quv dasturlari va darsliklardagi gender diskriminatsiyasini cheklashning pedagogik va psixologik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. *Gender tengligi, stereotip, ta'lim siyosati, ijtimoiy ong, xalqaro tajriba, STEM, O'zbekiston, innovatsion yondashuv, transformatsiya.*

ABSTRACT

This article examines the negative impact of deep-rooted gender stereotypes in the education system on the development of students and explores methods for their elimination. The paper analyzes international best practices and provides practical recommendations for fostering a culture of gender equality in Uzbekistan's educational institutions. Furthermore, it highlights the pedagogical and psychological aspects of mitigating gender discrimination in curricula and textbooks.

Keywords: *Gender equality, stereotype, education policy, social consciousness, international experience, STEM, Uzbekistan, innovative approach, transformation.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется негативное влияние глубоко укоренившихся гендерных стереотипов в системе образования на развитие учащихся и рассматриваются методы их устранения. В работе анализируется передовой международный опыт и даются практические рекомендации по формированию культуры гендерного равенства в образовательных учреждениях Узбекистана. Кроме того, освещаются педагогические и психологические аспекты смягчения гендерной дискриминации в учебных программах и учебниках.

Ключевые слова: *гендерное равенство, стереотипы, образовательная политика, социальное сознание, международный опыт, STEM, Узбекистан, инновационный подход, трансформация.*

Ta'lim – jamiyatning eng muhim va ajralmas qismidir, chunki uning ijtimoiy normalarni shakllantirishdagi o'zni benihoya katta. Xususan, barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan gender neytrallikni

ta'minlashda ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimi orqali jamiyat ongiga singgan stereotiplarni bartaraf etish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash yoshlarning, xotin-qizlarning o'z salohiyatlarini to'laqonli yuzaga chiqarish imkonini beradi va bu o'z o'rnida jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

Bugungi kunda gender tengligi konsepsiyasi keng qamrovli tushunchaga aylanib, u nafaqat xotin-qizlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni, balki jamiyatning barcha a'zolari jumladan, erkaklar va o'g'il bolalar uchun ham o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishda teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi. Masalan, yosh avlodni tarbiyalashda gender tenglik siyosatini yuritish akademik yo'nalishlar: matematika, fizika kabi aniq fanlar “o'g'il bolalar uchun”, gumanitar fanlar, jumladan, til va adabiyot “qiz bolalar uchun” degan tushunchalar, bundan tashqari, obro'li va yuqori mansablarda erkaklar, unchalik muhim e'tiborga ega bo'lmagan quyi pozitsiyalarda ko'pincha ayollar tasviri ko'rilishi kabi jamiyatga singgib ketgan stereotiplarni sug'urib tashlash imkonini beradi.

Biroq, bugungi kunda ham jahonning turli nuqtalarda ijtimoiy adolatsizliklar va gender tengsizligi tufayli xotin-qizlar turli muammolarga duch kelishmoqda. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda bu muammolarni tizimli ravishda hal qilinmoqda. Jumladan, Islandiya ta'limi “gender-neytral” yondashuvga asoslangan bo'lib, 1989-yilda Margret Pala Olafsdottir tomonidan asos solingan “Hjalli modeli”da bolaning jinsidan qat'i nazar qat'iyatli va mustaqil bo'lish bilan birga muloyimlik, g'amxo'rlik kabi fazilatlar o'rgatiladi. Maktablarda o'yinchoqlar va ranglar jinsga qarab ajratilmaydi. O'qituvchi rahbarligida bolalar aqliy cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. Islandiyada tenglik darajasi 90% dan yuqori deb baholanadi va so'nggi 15 yildan beri ketma-ket Jahon iqtisodiy forumining (World Economic Forum) Global Gender Gap Index reytingida 1-o'rinni egallab kelmoqda. Shuningdek, Hjalli maktablarida zo'ravonlik (bullying) darajasi an'anaviy maktablarga qaraganda sezilarli darajada kamligi bilan ajralib turadi.

Gender neytrallik siyosatini amlga oshirish, ayol va qizlarni texnologiya va muhandislik sohalarga jalb qilish bo'yicha AQSHda ham bir qator loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Shunday loyihalardan biri “Girls who code” bo'lib, bu loyiha hozirgi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda talab yuqori bo'lgan kasblarga talabalarni tayyorlashni maqsad qiladi. Bunda qizlar qiziqishlariga qarab maktabdan tashqari (3-12 sinflar uchun) bepul to'garaklarda o'qishadi, shuningdek yozda tashkil etiladigan 2 haftalik intensiv kurslarda dunyoning eng yirik IT kompaniyalari muhandislaridan ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Tashkilot o'z faoliyati davomida 500 mindan ziyod qizlarga ta'lim berdi va natijada universitetlarda yo'nalish tanlashda “Girls who code” bitiruvchilari kompyuter fanlarini tanlash ehtimoli 3 baravarga oshdi. Tashkilot asosan kam ta'minlangan oilalar qizlariga e'tibor qaratishi bilan boshqalardan ajralib turadi.

O'zbekistonda ham jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish maqsadida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, milliy qonunchilikda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi ishlarning huquqiy poydevorini mustahkamladi. Biroq, ta'lim tizimidagi gender strategiyasi shunchaki statistik ko'rsatkichlar (kvotalar) bilan cheklanib qolmay, tizimli transformatsiyani talab etadi.

Birinchidan, mamlakatimizda oliy ta'lim bosqichida xotin-qizlar uchun joriy etilgan imtiyozli grantlar va magistratura bosqichidagi kontrakt to'lovlarining davlat tomonidan qoplanishi iqtisodiy to'siqlarni olib tashlashning birinchi bosqichi bo'ldi. Bu chora uzoq yillar davomida oilalarda mavjud bo'lgan "o'g'il bolani o'qitish muhimroq" degan stereotipni iqtisodiy rag'bat orqali sindirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchinchidan, Islandiya tajribasidagi kabi maktabgacha ta'lim va xalq ta'limi darsliklarini inventarizatsiyadan o'tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O'zbekistondagi yangi avlod darsliklarida ayol obrazini nafaqat uy bekasi yoki o'qituvchi, balki muvaffaqiyatli tadbirkor, muhandis va davlat arbobi sifatida tasvirlash orqali yosh avlod ongida "gender neytrallik" tushunchasi shakllantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, o'g'il bolalarda ham oilaviy mas'uliyat va uy mehnatiga nisbatan teng huquqli sheriklik madaniyatini tarbiyalaydi.

Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot davrida "Girls who code" loyihasi kabi tashabbuslarni mahalliyashtirish – O'zbekiston IT-parklari qoshida qizlar uchun maxsus mentorlik dasturlarini kengaytirishni taqozo etadi. Bu nafaqat ayollar o'rtasidagi ishsizlikni kamaytiradi, balki mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YIM) o'sishiga bevosita hissa qo'shadigan yuqori texnologiyali kadalr qatlamini yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, gender tengligi shunchaki huquqiy deklaratsiya yoki statistik ko'rsatkichlar majmuasi emas, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishning fundamental mexanizmidir. Islandiya ta'limidagi "neytral" yondashuvi yoki AQSHning STEM sohasidagi maqsadli loyihalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy stereotiplarni sindirish davlatning iqtisodiy barqarorligi va jamiyatdagi sog'lom muhit bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston sharoitida bu islohotlar yangi bosqichga chiqmoqda. Ta'lim tizimini iqtisodiy imtiyozlar bilan birga, ijtimoiy ongni o'zgartiruvchi kontent (darsliklar, media, mentorlik) bilan boyitish — kelajakda "shaxs" tushunchasini "jins" tushunchasidan ustun qo'yuvchi avlodni shakllantiradi.

Zero, ta'limda gender neytralligining ta'minlanishi faqat xotin-qizlar uchun emas, balki erkaklar uchun ham an'anaviy qoliplardan ozod bo'lish va o'z iqtidorini cheklovlarisiz namoyon etish imkoniyatini beradi. Faqatgina har bir inson o'z qobiliyatiga ko'ra qadrlanadigan jamiyatda barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolatga erishish mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimini bu yo'lda transformatsiya qilish — bugungi kunning eng strategik investitsiyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Egamberdieva, B.Xonturayev, Sh. Abdiraimova. Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari. – Toshkent 2024 – 7-10 – <https://uzgender.uz>
 2. Madraximova Diyora Egambergan qizi. Barqaror rivojlanish maqsadlari: Ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash imkoniyatlari. – 134 – <https://inlibrary.uz>
 3. O’zbekiston respublikasining qonuni. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi O’RQ-562-sonli Qonuni. – Toshkent,2019-yil 2-sentabr. – <https://lex.uz>
 4. Egamberdiyeva I.A. Ta’lim tizimida gender tengligi – <http://uzresearch1.uz>
 5. Ajay Kumar Godara. Gender equality in educational institutions. - International Journal of Science and Research Archive – Article DOI: <https://doi.org/10.30574/isjra.2024.13.1.1801>
- Internet saytlar:
6. Hjalili Model Rasmiy sayti. – <https://www.hjallimodel.com>
 7. “Girls who code” rasmiy sayti. – <https://girlswhocode.com>